

МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ

Илимий-методикалық журнал



№ 5 2024

гуманитарные науки
естественные науки
технические науки



МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ



Илимий-методикалық журнал

2024

5-сан

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ғәм хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы ғуўалық берилген.*

5-сан 2024
сентябрь

Шөлкемлестіріушілер:

*Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендириу Министрлиги,
ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы*

Редактор:
А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ	Уролбой МИРСАНОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ	Сафо МАТЧОН
Айтмурат АЛЬНИЯЗОВ	Шукурулло МАРДОНОВ
Сапардурды АБАЕВ	Камаладин МАТЯКУБОВ
Адхамжон АБДУРАШИТОВ	Арзы ПАЗЫЛОВ
Хайрулла АЛЯМИНОВ	Барлықбай ПРЕНОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ	Раьно ОРИПОВА
Алишер АЛЛАМУРАТОВ	Бахтиёр РАХИМОВ
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ	Фуркат РАЖАБОВ
Интизар АБДИРИМОВА	Мукаддас РАХМАНОВА
Тўлкин АЛЛАЁРОВ	Светлана СМИРНОВА (Москва, Россия)
Марифжон АХМЕДОВ	Дилшода САПАРБАЕВА
Умида БАҲАДИРОВА	Феруза САПАЕВА
Фархад БАБАШЕВ	Зайниддин САНАҚУЛОВ
Ботир БОЙМЕТОВ	Мухаббат САЛАЕВА
Гулзода БОЙМУРОДОВА	Қаххор ТУРСУНОВ
Шахло БОТИРОВА	Амина ТЕМИРБЕКОВА
Маманазар ДЖУМАЕВ	Нурзода ТОШЕВА
Асқар ДЖУМАШЕВ	Куанишбек ТУРЕКЕЕВ
Мухтар ЕРМЕКБАЕВ (Шимкент, Қазақстан)	Тажибай УТЕБАЕВ
Алишер ЖУМАНОВ	Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА	Мамбеткерим ҚУДАЙБЕРГЕНОВ
Холбой ИБРАГИМОВ	Амангелди КАМАЛОВ
Шохида ИСТАМОВА	Вохид КАРАЕВ
Умида ИБРАГИМОВА	Гулмира ҚАРЛЫБАЕВА
Лола ИСРОИЛОВА	Ризамат ШОДИЕВ
Алима КЕНЖЕБАЕВА (Тараз, Қазақстан)	Зафар ЧОРИШАНБИЕВ
Ярмухаммат МАДАЛИЕВ (Шимкент, Қазақстан)	Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Меруерт ПАЗЫЛОВА	Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Асқарбай НИЯЗОВ	Тармиза ХУРВАЛИЕВА
Сабит НУРЖАНОВ	Умид ХОДЖАМҚУЛОВ
Захия НАРИМБЕТОВА	Жавлонбек ХУДОЙБЕРГЕНОВ
Ҳушбоқ НОРБЎТАЕВ	Гулрухсор ЭРҒАШЕВА
Улфат МАҲҚАМОВ	Гавхар ЭШЧАНОВА
	Қонысбай ЮСУПОВ



Davlatova M. A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining fazoviy tasavvurlarini shakllantirishda geometriya elementlarining o'rni	348
Usmonova Q. S. Inklyuziv ta'limni boshlang'ich sinflarda joriy etishning ahamiyati va samaradorli	353
Умарова З.А. “Бошлангич таълим педагогикаси”да оптимал бошлангич таълим турлари	357
Xayridinov B.K. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining boshqaruv kompetentliklarini rivojlantirishning mazmuni	363
Tilovova S.B., Matupayeva Sh.Z. Inklyuziv ta'lim amaliyotida samaradorlikka erishishning o'ziga xos imkoniyatlari	366
Абдуллаев Б. М. Имконияти чекланган бошлангич синф ўқувчилари ҳуқуқий маданиятини шакллантириш педагогик муаммо сифатида	371
Urazmetova Sh.A. Imkoniyati cheklangan yoshlarni o'qitishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati	376
Kuchkinov A.Yu. Eko-steam yondashuvining tarixiy-ijtimoiy taraqqiyoti boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarida ekopedagogik kompetentlikni rivojlantirish	383
Jabborova O.M., To'rayeva G.T. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'z-o'zini anglash ko'nikmasini shakllantirish tizimi	388
Xolmatova G.I. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyatni shakllantiruvchi topshiriqlar	396
Tilavova S.B. Boshlang'ich ta'limda steam yondashuv asosida raqamli texnologiyalar orqali bo'lajak o'qituvchilarning ekologik kompetentligini takomillashtirish	400
Shaxmuradova D.A. O'quvchilarda kritik va kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirishning nazariy asoslari	406
Арсланова Г.Дж. Современные педагогические технологии в начальном образовании	412
Пак С.В. Методика формирования профессиональных компетенций студентов в области математического развития дошкольников	419
Абдуллаева Л.У. Формирование компетенций педагогов по взаимодействию с родителями и социальными партнёрами в ДОО	430
Мирзорахимов О.К. Что такое игра для ребенка?	438
Дониёрова Л.Х. Совершенствование методики применения феминитивов в речи у будущих учителей начальных классов	444
Джангенова Г.Э., Мубаракшина А.Р. Влияние музыкальных занятий на формирование познавательных способностей детей дошкольного возраста	450
Джангенова Г.Э., Хакимова С.Х. Формирование социального опыта, связанное с развитием нравственных качеств у детей дошкольного возраста	454
Сейтмуратова В.Ш. Формирование культуры здорового образа жизни у детей старшего дошкольного возраста в ДОУ	457

ТАСВИРИЙ САЪНАТ

Sarsenbaev T.T. Me'morchilik vositasida talabalarning kasbiy-estetik kompetentligini rivojlantirish	462
Xalmuratov I.T. Qoraqalpoq amaliy san'ati asosida talabalarning innovatsion faoliyatini rivojlantirish	468

СОЦИАЛЛЫҚ ПЕДАГОГИКА

Usmonov N.B. O'quvchi shaxsining ijtimoiy munosabatlarga tayyorlash metodikasi	472
Ubaydova V.E. Yengil sanoat sohasida mutaxassis kadrlarning kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishda olimlarning ilmiy tadqiqotlar tahlili	476
Kamolov E.R. Noaniq to'plam prinsipidan foydalanib noaniq regulyatorlarni qurish	482
Orinbetov N.T. O'quvchi yoshlarning fuqarolik pozitsiyasining ko'rsatkichlari va darajalari	486
Matupayeva Sh.Z., Shoyusupova Sh.Sh. Talabalarining kasbiy kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishda clil texnologiyasining integrativ imkoniyatlari	492
Давронова Д.С. Влияние национальных традиций на воспитание детей в узбекских семьях	497



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING O'Z-O'ZINI ANGLASH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH TIZIMI

Jabborova O.M.

*CHDPU, pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD),*

To'rayeva G.T.

CHDPU, boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Tayanch so'zlar: boshlang'ich sinf, o'quvchi, o'z-o'zini anglash, ko'nikma, shakllantirish tizimi, yondashuv, tahlil, ko'nikma, malaka.

Ключевые слова: начальный класс, ученик, самосознание, умение, система формирования, подход, анализ, умение, компетентность.

Key words: elementary grade, textbook, self-awareness, skill, formation system, approach, analysis, skill, competence.

Резюме: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'z-o'zini anglash ko'nikmasini shakllantirish tizimi mazkur maqolada tahlil qilingan va unda mualliflarning ilmiy-metodik yondashuvlari taqdim etilgan, muammo bo'yicha yo'nalishlar tavsiya qilingan.

Резюме: В данной статье проанализирована система формирования навыков самосознания учащихся начальных классов, представлены научно-методические подходы авторов, рекомендованы направления по проблеме.

Summary: This article analyzes the system of formation of self-awareness skills of primary school students, presents the scientific and methodological approaches of the authors, and recommends directions on the problem.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-232-son "Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish to'g'risida"gi Qarorida belgilangan 2025-2026 o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari, jumladan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy-emotsional ko'nikmalari tarkibiga kiruvchi o'z-o'zini anglash ko'nikmasini shakllantirish vazifasi doirasida ushbu maqola tayyorlandi [1]. Maqolada ushbu Qaror asosida mamlakatimizda ijtimoiy-emotsional ta'lim SEL (social and emotsional learning) metodikalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etishning o'ziga xos tizimi va unda boshlang'ich sinf o'quvchilarining mazkur metodika asosidagi 5 ijtimoiy-emotsional, ya'ni o'z-o'zini anglash,



o‘z-o‘zini boshqarish, ijtimoiy xabardorlik, tengdoshlariga munosabat va mas’uliyatli qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish tizimi bo‘yicha fikr yuritilgan. Asosiy e’tibor boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘z-o‘zini anglash ko‘nikmasini tarkib toptirish tizimini ishlab chiqishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili. Mamlakatimiz pedagog olimlari tomonidan boshlang‘ich ta’lim nazariyasi, didaktikasi va metodologiyasi masalalari bo‘yicha muhim tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Bu jarayonda ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha ilmiy-metodik konsepsiyalar yaratilganligini alohida ta’kidlash lozim. Shu jihatdan R.Djurayev, X.Ibragimov, R.Safarova, O.Musurmonova kabilarning tadqiqotlari muhim o‘rin tutadi.

Xorijlik pedagog olimlarning ilmiy-tadqiqotlarida ham boshlang‘ich ta’lim muammolari bo‘yicha muhim metodik tadqiqotlar yaratilganligini eslatib o‘tish joiz. Bu borada Yan Amos Komenskiy, Konstantin Dmitriyevich Ushinskiy kabilarning boshlang‘ich ta’lim metodikasi va boshlang‘ich ta’limda xalqona ruhga tayangan pedagogik mazmunga asoslanish masalalari bo‘yicha ishlab chiqilgan metodik tavsiyalarning ahamiyatini alohida ta’kidlash lozim.

Aynipaytda, innovatsion jamiyat sharoitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining davr talablari asosidagi ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari yo‘lga qo‘yilayotganligini eslatib o‘tish joiz. Shu ma’noda SEL metodikalari bo‘yicha boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha ilmiy-metodik tadqiqotlar majmuini yaratish ishi boshlanganligini ta’kidlab o‘tish lozim.

Asosiy qism. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining 5 ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalari tarkibida ularning o‘z-o‘zini anglash masalasi muhim o‘rin tutadi. Mazkur masala Pedagogika fani taraqqiyotida asrlar davomida mavjud bo‘lib [1], u bugungi kunda Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi o‘quv fanining ham asosiy bahs masalaridan biri hisoblanadi. Pedagogika fani tajribasiga ko‘ra, shaxsning o‘zligini anglash insonning tashqi olamga munosabati, uning ongi va shaxsiy munosabatlarining majmui hisoblanadi. Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘z-o‘zini anglash ko‘nikmasi masalasini aniqlashtirib olish va uni shakllantirish tizimini ishlab chiqish muhim ahamiyatga egadir.

O‘zbek pedagog olimlarining umumiy fikricha, “o‘z-o‘zini anglash – insonning o‘z-o‘zi va o‘z shaxsiy sifatlarini anglashi” bo‘lib, bevosita u o‘zlikni anglash tushunchasi bilan bog‘liqdir; shunga ko‘ra, “o‘zlikni anglash – o‘z xatti-harakatining jamiyat talablariga mosligi, o‘z meniga ega bo‘lishi, jamiyat a’zolari bilan muloqotga kirisha olishi imkoniyatlari ifodasi”dir [3]. Mazkur



yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'z - o'zini anglash ko'nikmasi tizimini ishlab chiqish mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining Men tuyg'usini tartibga solish tizimi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida Men tuyg'usi tabiiy holda mavjud bo'lib, u insonning o'zligini belgilash bilan bog'liq hodisadir. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy mavjud bo'lgan Men tuyg'usini to'g'ri shakllantirish uchun u tartibga solinishi taqozo etiladi. Unga ko'ra, quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- 1) men tuyg'usining darajasini aniqlash;
- 2) men tuyg'usini rivojlantirish;
- 3) men tuyg'usini shakllanganligini belgilash.

Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida Men tuyg'usi pedagogik qonuniyatlar asosida shakllantirilishi kerak. Agar menlik tuyg'usi ustuvor darajada shakllansa, o'quvchilarda xudbinlik kabi illatlarning paydo bo'lishi, bordiyu mazkur tuyg'u kutilgan darajada rivojlanmasa, o'quvchilarda o'zlikni anglash nisbatan talab darajasidan past bo'lishi yuzaga keladi. Shu sababli mazkur masalada pedagog mutafakkirlarning tajribasi, ya'ni "o'rta yo'l" metodiga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu metodga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarining Men tuyg'usi to'g'ri rivojlantirilishi va unda meyorga tayanilishi kutilgan samarani beradi. Eslatib o'tish lozimki, o'quvchilarda Men tuyg'usi ularning ongi bilan bog'liq bo'lgan pedagogik, psixologik va fiziologik hodisadir.

E'tibor berilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining Men tuyg'usini to'g'ri shakllantirish bilan ularda o'z-o'zini anglash ko'nikmasi sari harakatni belgilash mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'z xatti-harakatlarini tartibga solish tizimi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari shaxsning eng faol bosqichidagi toifa hisoblanadi. Aynan mana shu bosqichda o'quvchilarning menlik tuyg'usiga asoslangan xatti-xarakatlari tarkib topib, ular ta'limning keyingi bosqichlarida rivojlanish jarayonida bo'ladi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'z xatti-harakatlarini tartibga solishda quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- 1) individual xatti-harakatlarni rivojlantirish;
- 2) individual xatti-harakatlarni ijtimoiylashtirish;
- 3) ijtimoiylashgan individual xatti-harakatlarni amaliyotga yo'naltirish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining individual xatti-harakatlarini rivojlantirish bilan ularning bu boradagi ko'nikmalarini tartibga solish mumkin. Bunda o'quvchilarning o'ziga xos tuyg'ulari, fikrlari va ruhiy kechinmalariga



e'tibor berish lozim. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tuyg'ularning sof va shaffof bo'lishi ularni to'g'ri rivojlantirish va himoya qilishni taqozo etadi. Bu toifa o'quvchilarda fikr ko'nikmasi rivojlanish jarayonida bo'lganligi uchun fikrlar rang-barangligi mavjud bo'ladi. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarida har lahzada kechadigan va rivojlanish xususiyatiga ega bo'lgan ruhiy kechinmalar muntazam yuzaga kelib turadi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarining tuyg'ulari, fikrlari va kechinmalarini maqsadli rivojlantirish bilan ularning individual xatti-harakatlarini rivojlantirishga erishish mumkin. Jahon Pedagogikasida mazkur masalada rus pedagogi va psixologi Anton Ivanovich Pavlovning signallar ta'limotiga asoslanib kelinayotganligini eslatib o'tish lozim [4]. Unga ko'ra, bolaning miyasida yuzaga keladigan sof tuyg'u birinchi signal hisoblanadi, tuyg'uning qo'zg'alishi natijasida fikr yuzaga keladi va bu ikkinchi signaldir. Tuyg'u va fikrning aralashmasi natijasida bolada o'ziga xos ruhiy kechinmalar yuzaga keladi va aynan bu ruhiy kechinmalar uning xatti-harakatlariga asos bo'ladi. Shu ma'noda boladagi yuzaga keladigan tuyg'u va fikrni to'g'ri rivojlantirish vositasida ularda ruhiy kechinmani tartibga solish imkoniyati paydo bo'ladi. Bu hol boshlang'ich sinf o'quvchilarining individual xatti-harakatlarini to'g'ri rivojlantirish imkoniyatlarini beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida xatti-harakatlarning tartibsiz rivojlanishi mavjud ekanligini idrok etish lozim. Shu sababli ularning individual xatti-harakatlari ijtimoiylashtirib boriladi. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarining tuyg'u, fikr va ruhiy kechinmalari tengdoshlarining ana shu kechinmalariga moslashtiriladi. Buning natijasida bolaning shaxsiy-individual xatti-harakatlari ehtiyojlarga mos ravishda reallik kasb etadi. Natijada boshlang'ich sinf o'quvchilarida individual xatti-harakatlarning umumlashma ko'rinishlari yuzaga keladi. Bu aynan boshlang'ich sinf o'quvchisida Men tuyg'usining to'g'ri shakllanishi uchun muhim asoslardan biri bo'lib, unda bola shaxsida ijtimoiylikning tarkib topishi maqsadli kechadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining individual xatti-harakatlari ijtimoiylashtirish vositasida amaliyotga yo'naltirib borilishi kerak. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy, jismoniy va ruhiy xatti-harakatlari imkoniyatlari bilim olish, tarbiya asoslarini o'zlashtirish va ijtimoiy faoliyat ko'nikmalarini egallashga yo'naltiriladi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari shaxsida bu imkoniyatlar tabiiy bo'lib, ularda aqliy, jismoniy va ruhiy xususiyatlarning identifikatsiya, ya'ni tartibga solinish jarayoni kechadi. Buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida muntazam ruhiy kechinmalarning o'zgarishi, aqliy rivojlanishning turli darajada bo'lishi va jismoniy rivojlanishda o'ziga xos ko'rsatkichlarning paydo bo'lishi yuzaga keladi. Shu sababli



boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning xatti-harakatlarini amaliyotga yo'naltirishda ularning menlik tuyg'usi vositasida rivojlangan imkoniyatlarini to'g'ri rivojlantirib borishga asosiy e'tibor qaratiladi.

Diqqat qilinsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining individual xatti-harakatlarini ijtimoiylashtirish natijasida ularda o'z-o'zini anglash ko'nikmasini to'g'ri shakllantirishga kirishish mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining muloqot ko'nikmasini tartibga solish tizimi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'z-o'zini anglash ko'nikmasini tarkib toptirishda ularning muloqot ko'nikmasini shakllantirish muhim ahamiyatga egadir. Unga ko'ra, muloqot – bu bola shaxsining o'zi yashayotgan jamiyat qonuniyatlariga mos ravishda nutq ko'nikmasiga ega bo'lishidir. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarining muloqot ko'nikmasini tarkib toptirishda quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- 1) o'quvchining nutqiy imkoniyatlarini rivojlantirish;
- 2) o'quvchida nutq madaniyati asoslarini tarkib toptirish;
- 3) o'quvchida o'zgalarni tinglash ko'nikmasini shakllantirish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining muloqot ko'nikmasida ularning nutqiy imkoniyatlari asosiy o'rin tutadi. Bunda o'quvchilarning quyidagi uch toifasi ko'zga tashlanadi: 1) ravon so'zlovchi; 2) so'z boyligi egalari; 3) kamgaplar. Ravon so'zlovchi boshlang'ich sinf o'quvchilarida meyoridan ortiq so'zlash xususiyatlari mavjud bo'ladi va bu hol ularning menlik tuyg'usi to'g'ri rivojlanayotganligidan dalolat beradi. Ko'p so'z boyligiga ega o'quvchilarda ma'noli so'zlash xususiyatlari ko'zga tashlanadi va bu hol ularning tuyg'ulari hamda kechinmalari tartibga solinganligidan darak beradi. Kamgap o'quvchilarda so'z boyligi yetishmasligi yoki so'zlarni noto'g'ri talaffuz qilish xususiyatlari mavjud bo'ladi. Shu sababli tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilarning mazkur toifalar bo'yicha belgilarini aniqlab ular bilan individual mashg'ulotlarni amalga oshiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ravon so'zlash, so'z boyligidan o'rinli foydalanish va kezi kelganda so'zlashdan tiyilish ko'nikmalarini tarkib toptirish bilan ularda nutqiy imkoniyatlarni talab darajasida shakllantirish mumkin. Eslatib o'tish joizki, aynan nutq vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilari muloqotga kirishadi va ularning xatti-harakatlari bu muloqotni kengaytirish vazifasini bajaradi. Agar boshlang'ich sinf o'quvchisida nutqiy imkoniyatlar to'g'ri rivojlantirilsa, unda qo'l, bosh, yuz kabi organlarning harakat tizimlari asta-sekin ma'no kasb etib boradi. Shu sababli bu borada pedagogik fiziologiya metodlaridan xabardor bo'lish maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun, nutqiy imkoniyati to'g'ri



rivojlangan boshlang'ich sinf o'quvchilarida xatti-harakatlarni ma'noli bajarish ko'nikmasi tarkib topadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari muloqot ko'nikmasida nutqiy imkoniyatlardan to'g'ri foydalanish masalasi ham muhim ahamiyatga egadir. Unga ko'ra, o'quvchilarda nutq madaniyati asoslarini tarkib toptirish taqozo etiladi. Bunda ularni taqlid qilib so'zlash, so'zlarni noto'g'ri talaffuz qilish, ma'nosi tushunarsiz so'zlarni ishlatmaslik va katta yoshlilar nutqiga ergashish kabi harakatlardan himoya qilish taqozo etiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqida soflik, tushunarliklik va qisqalikning bo'lishi nutq madaniyatining asoslarini tashkil qiladi. Shu sababli ularning yosh va jismoniy xususiyatlariga mos she'rlar, qo'shiqlar va tez aytishlar vositasida nutqiy madaniyati ko'nikmalari tarkib toptiriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy talaffuzi butun dunyoda san'atkorlarning eng oliy nutq talaffuziga qiyos qilinadi. Bunda bolalar nutqidagi oxangdorlik, jozibadorlik va talaffuzdagi o'ziga xoslikni tarkib toptirish asosiy masala hisoblanadi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilaridan chiroyli so'zlash ko'nikmasini tarkib toptirish bilan ularni o'ziga xos muloqotga tayyorlash imkoniyatlariga ega bo'linadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining muloqot ko'nikmasini tarkib toptirishda ularni o'zgalarni tinglash tajribasini shakllantirish ham muhimdir. Unga ko'ra, nutqni yaxshi ko'radigan boshlang'ich sinf o'quvchisi tengdoshini va jamoatchilikni tinglash ko'nikmasiga ega bo'lishga o'rgatish muhim masalalardan biridir. Pedagogik tajribalar shuni ko'rsatadiki, nutqiy imkoniyatlari rivojlangan boshlang'ich sinf o'quvchilari ko'p so'zlaydi va buning natijasida o'zgalarni tinglash ikkinchi darajaga tushib qoladi. Shu sababli o'quvchilardan o'zgalarni tinglash ko'nikmasini tarkib toptirish ham ularni muloqotga tayyorlashning muhim asoslaridan biridir. Bunda tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodikalaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Mazkur metodikalardan biriga muvofiq, ko'p so'zlaydigan o'quvchi kamgap tengdoshi bilan muloqotga kirishishi sharoiti yuzaga keltiriladi: ular birga dars tayyorlashadi, tadbirlarda birgalikda ishtirok etishadi va birgalikda to'garaklarda qatnashadi. Buning natijasida ko'p so'zlovchi va kamgap o'quvchida o'zgalarni tinglash ko'nikmasi asta-sekin tarkib topib boradi. Shu ma'noda bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'zgalarni tinglash ko'nikmasini tarkib toptirish bilan ularni muloqotga tayyorlash muhim vositalardan biridir.

Diqqat qilinsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy imkoniyatlarini to'g'ri tarkib toptirish vositasida ularni muloqotga tayyorlash mumkin.



Zero, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'z-o'zini anglash ko'nikmasini shakllantirish tizimida ularning menlik tuyg'usini to'g'ri shakllantirish, ularni ijtimoiylashtirish va ularni muloqotga tayyorlash jarayoni muhim o'rin tutadi.

Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'z-o'zini anglash ko'nikmasini shakllantirish tizimida aniq metodikalarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday metodikalarning eng ommaviylari quyidagilardan iborat ekanligini ta'kidlash lozim:

- 1) dars jarayoni metodikasi;
- 2) o'yinlar jarayoni metodikasi;
- 3) maxsus tarbiya metodikasi.

Xulosa. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'z-o'zini anglash ko'nikmasini shakllantirish tizimida maxsus tarbiya metodikasidan ham foydalanish lozim bo'ladi. Unga ko'ra, ta'lim va tarbiya jarayonida murakkablikka duch kelayotgan o'quvchilar inkluziv ta'lim oluvchilar va ijtimoiy muammoga ega oilalarda voyaga yetayotgan o'quvchilar bilan ularning o'z-o'zini anglash ko'nikmasini shakllantirishda maxsus tarbiya metodikasidan foydalanish muhim ahamiyatga egadir. Buning uchun ularda o'zligiga bo'lgan ishonch, ruhiy ko'tarinkilik, muamolar qarshisida esankiramaslik, o'zini to'laqonli his qilish, o'z tengdoshlariga nisbatan intilish kabi tuyg'ularni maxsus tarbiya vositasida tarkib toptirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda maxsus tarbiyaning bolani rag'batlantirish, uning erkin munosabatda bo'lishi, Ustozga ishonch kabi metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu ma'noda rag'batlantirish metodi boshlang'ich sinf o'quvchilarining yutuqlarini munosib baholashga, erkin munosabatda bo'lish metodi ularning o'z fikr va g'oyalarini tashabbus vositasida taqdim qilishda hamda Ustozga ishonch metodi esa har qanday vaziyatda va sharoitda o'quvchining o'z ustoziga munosabatda bo'lishiga asoslanadi. Aynan mana shunday ijtimoiy-pedagogik metodlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining muayyan toifalarini maxsus tarbiya metodikalari asosida tarbiyalash imkonini beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'z-o'zini anglash ko'nikmasini tarkib toptirish milliy ta'lim tizimimizda mavjud bo'lib kelayotgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Lekin mazkur masala asosiy pedagogik vazifalardan biri sifatida qo'yilayotganligiga e'tibor berish kerak. Chunki mustaqillikka qadar ta'lim tizimimizda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'z-o'zini anglash ko'nikmasini tarkib toptirish masalasi ikkilamchi hisoblangan va mustaqillik davrida mazkur masalada yondashuvlar shakllanganligini eslatib o'tish lozim. Shu ma'noda mashhur pedagoglar o'quvchilarning o'z-o'zini anglashida eng avvalo ularni mehnat ko'nikmalarini to'g'ri tarkib toptirishni tavsiya etishadi.



Unga ko'ra, o'z-o'zini anglash jarayoni o'quvchining individual mehnatiga asoslanadi. Buning ma'nosi shuki, har bir boshlang'ich sinf o'quvchisini o'z-o'zini anglash jarayoniga keng jalb etish lozim bo'ladi. O'quvchi o'z-o'zini anglashda individual harakat qilishi, murakkab sharoitlardan cho'chimasligi va serharakatchan bo'lishi bilan individual mehnatni amalga oshirgan hisoblanadi. Agar o'quvchi tomonidan o'zi ustida ishlash ko'rinishidagi mehnat amalga oshirilmasa, unda o'z-o'zini anglash ko'nikmasi faqat nazariy yondashuv bilan cheklanib qoladi.

Bularning barchasi boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'z-o'zini anglash ko'nikmasini tarkib toptirishda biri necha metodlarga asoslanish lozimligini ko'rsatadi. Umuman mazkur masalada bizning yondashuvimiz har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisining individual yondashuvini tarkib toptirishga erishishdir. Shu tariqa boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'z-o'zini anglash ko'nikmasini bugungi kun talablari asosida shakllantirishga erishish mumkin.

Shunday qilib boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'z-o'zini anglash ko'nikmasini shakllantirish tizimi 5 ijtimoiy- emotsional ko'nikmalarni tarkib toptirishning o'ziga xos yondashuvlaridan biridir. Bu borada mavjud pedagogik tajribalarga tayangan holda innovatsion metodikalarni ishlab chiqish dolzarb bo'lib turibdi.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21 iyundagi PQ-232-son "Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori // www.ziynet.uz
2. Философский словарь. Коллектив авторов. – Москва: Политиздат. 1980.
3. R.Djurayev va boshq. Pedagogik atamalar lug'ati.– T.: "Fan", 2008.
4. Бордовская Н., Реан А. Педагогика. – Санкт-Петербург, 2001

ISSN 2181-7138

Т. Н. Қары Ниязий атындағы Өзбекстан педагогикалық
илим-изертлеу институтының Ж. Орынбаев атындағы Қарақалпақстан филиалы

**«МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ
БИЛИМЛЕНДИРИЎ»**

№ 5

Нөкис — 2024

Басып шығыўға жуўапкер:

А. Тилегенов, С. Нуржанов

Баспаға таярлаған:

А. Тилегенов

Компьютерде таярлаған:

П. Реймбаев, З. Ниязымбетова

Мәнзил: Нөкис қаласы, Ерназар Алакөз көшеси №54

Тел.: +998 61 224-23-00, +998 61 224-01-34

e-mail: uzniipnkkf@mail.uz,

mugallim-pednaik@mail.uz

www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz

www.KRTEACH.UZ

Журналға келген мақалаларға жуўап қайтарылмайды, журналда жарияланған мақалалардан алынған үзіндилер «Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў» журналынан алынды, деп көрсетилиўи шәрт. Журналға 5-6 бет көлеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледі. Мақалада келтирилген мағлыўматларға автор жуўапкер.

Оригинал-макеттен басыўға рухсат етилди 09.09.2024. Форматы 70x100^{1/8}

«Таймс» гарнитурасында офсет усылында басылды.

Шәртли б.т. 31. Нашр. т. Нұсқасы _____ Буйыртпа №